

**“Olmaliq KMK” AJ
sodir etilgan korrupsiyaviy
huquqbuzarliklar haqida xabar bergan
yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga
boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni
rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son Qaroriga muvofiq Kombinat ijro apparati va/yoxud tarkibiy bo‘linmalar xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarlik (yoxud sodir etishga suiqasd qilinganligi) haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018 yil 8 yanvardagi 15-son qarori talablari ushbu Nizom bilan tartibga solinadigan munosabatlarga nisbatan tadbiriq etilmaydi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy atama va tushunchalardan foydalaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar — Kombinat xodimlari, shu jumladan Boshqaruv a‘zolari, bo‘linmalar va tarkibiy korxonalar rahbarlari va ishchi xodimlari, fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, yuridik shaxslar yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlar, davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoxud fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining xizmatchisi;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish — tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoxud sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq qidiruv e‘lon qilingan shaxslarni topishda amaliy yordam ko‘rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish — korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida Komplaens-nazorat xizmatiga xabar berish yoxud bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatli davlat organiga bevosita ko‘maklashish;

korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar — O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 61¹, 175⁸, 193¹ va 193²-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar — O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 175, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209 – 214 moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda proressual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar (keyingi

o‘rinlarda — korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli davlat organlari) — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talablar buzilganligi to‘g‘risida vijdonan xabar berish – Kombinat xodimi tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligi (yoxud sodir etishga suiqasd qilinganligi) to‘g‘risida, ruxsat etilgan aloqa kanallari orqali asosililigiga ishonch hosil qilgan holda yo‘llangan murojaat;

kontragent (shartnomaviy sherik) – Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoxud jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor);

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoxud xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoxud nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoxud harakatsizligi (qilmishi) uchun bevosita yoxud bilvosita, shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali porani, ya’ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, vada qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoxud) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar olish, xodim tomonidan pora olish yoxud qonunga xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat (lavozim) mavqeidan noqonuniy foydalanishi;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik – korrupsiyaviy belgilariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish (harakat yoxud harakatsizlik);

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki normativ hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Kombinat xodimlari tomonidan yuksak darajada kasbiy va xizmatdagi odob-ahloq qoidalariga asosan faoliyat olib borishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

korrupsiyaviy xavf-xatar – Kombinat xodimlari yoxud uchinchi shaxslar tomonidan Kombinat nomidan va (yoxud) uning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

xodim (xodimlar) – Kombinat ijro apparati va/yoxud tarkibiy bo‘linmalar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan har qanday jismoniy shaxs, shu jumladan Kombinat boshqaruv a‘zolari.

4. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirishning (keyingi o‘rinlarda — rag‘batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

Kombinatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz (toqatsizlik muhitini) munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

Kombinatda korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish;

Kombinat ishchi va xodimlarining, shuningdek aholining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib ravishda taqdirlash.

5. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, shaffoflik, hisobdorlik, ko'maklashgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga qat'iy rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

6. Ushbu Nizom talablari quyidagi shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

mansabdor shaxslar, shu jumladan, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxslar;

qonun hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan arz qilgan yoxud korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan shaxslar.

7. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoxud esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

2-bob. Kombinat xodimlari ishtirokida sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirishning asoslari va turlari

8. Xodimlar, Kombinat va uning tarkibida ularga oshkor bo'lgan har qanday korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar va ma'lumotlarni zudlik bilan Kombinat ijro apparatidagi Komplains-nazorat xizmatiga quyidagi aloqa kanallari orqali yuborishlari lozim:

“(+998 70) 619 15 47” yoxud (+998 71) 202 04 02 (ichki telefon raqami: 220 yoxud 102) yoxud Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Koordinatorning uyali aloqa telefon raqamiga (+998 99) 007-47-63 xabar qilishi lozim.

E-mail: info@anticorruption.uz ga murojaat qilishlari mumkin.

Kombinat ijro apparatidagi Xizmatning boshqa telefon raqamlari:

(+998 70) 619-23-32; (+998 78) 141-93-32; yoxud (+998 99) 007 47 63.

“Olmaliq KMK”AJning rasmiy veb sahifasi manzili hamda Ijtimoiy tarmoqlardagi manzillari ro'yxati:

Telegram messendjeridagi - AGMK-OKMK rasmiy kanali - https://t.me/ao_agmk

Kombinatning internet tarmogʻidagi rasmiy web-sahifasi manzili: www.agmk.uz

“Facebook”dagi manzili: www.facebook.com/agmkofficial

“Youtube” video xostingidagi doimiy manzili: www.youtube.com/c/AGMKuzAlmalik/featured

Kombinat va uning xodimlariga korrupsiyaviy xatti-harakatlariga oid maxsus xabarlarni quyidagi manzilga yuborishlaringiz mumkin: — @OKMK_OFFICIAL_bot .

Kombinat Axborot (Matbuot) xizmatining bot manzili: @AGMK_PRESSA_BOT

Komplaens-nazorat Xizmatining @OKMKcompliance kanaliga;

“Olmaliq KMK”AJning quyidagi: <https://agmk.uz/ru/obyavleniye/korrupsiyaga-qarshi-kurash> rasmiy veb-sahifasida, shuningdek Vakolatli davlat organining quyidagi: <https://anticorruption.uz/ru/item/report-corruption> rasmiy veb sahifasida joylashtirilgan shakllarni toʻldirgan holda;

Komplaens-nazorat xizmatining quyidagi elektron pochta manziliga: stop.corruption@agmk.uz .

toʻgʻridan-toʻgʻri huquqni muhofaza qilish organlariga.

9. Yolgʻon xabar berganlik uchun Jinoyat kodeksining 237-moddasida;

Tuhmat qilganlik uchun Jinoyat kodeksining 139-moddasida;

Tuhmat qilganlik uchun Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 40-moddasida javobgarlik belgilangan hamda bu harakatlar javobgarlikni keltirib chiqarishini takroran eslatib oʻtamiz.

10. Kombinatda sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda koʻmaklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud boʻlganda bir martalik pul mukofoti bilan ragʻbatlantiriladi:

xodimlar va ishchilar, fuqarolar yoxud fuqaroligi boʻlmagan shaxslar tomonidan oʻzlariga nisbatan pora talab qilgan shaxs haqida yoxud oʻzlariga maʼlum boʻlgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli davlat organlariga (Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari roʻyxati **7-modda**, <https://lex.uz/docs/3088008>) bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tijorat tashkilotining yoxud boshqa nodavlat tashkilotining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoxud fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organining xizmatchisi oʻziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoxud pora talab qilgan shaxs haqida yoxud oʻziga maʼlum boʻlgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga (korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning xodimlari esa bevosita oʻz rahbariga) bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi;

korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etganligi uchun qidiruvda bo'lgan shaxs to'g'risida O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlariga berilgan xabar asosida qidiruvdagi shaxs ushlanishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bundan mustasno.

11. Kombinatda sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

a) korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;**

b) pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati **bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lsa:**

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;**

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;**

og'ir jinoyat uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;**

o'ta og'ir jinoyat uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;**

v) pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati **bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lsa:**

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;**

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;**

og'ir jinoyat uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida;**

o'ta og'ir jinoyat uchun — **bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida;**

g) pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati **bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko'p bo'lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:**

ancha miqdor uchun — pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining **o'n besh foizi miqdorida;**

ko'p yoxud juda ko'p miqdor uchun — pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining **o'n foizi miqdorida.**

Bunda pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatini foizlarda hisoblashda qonun hujjatlarida belgilangan miqdorning eng kam miqdoridan kelib chiqiladi;

12. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga xabar berganlik yoxud bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashgan Kombinat xodimi (xodimlari) yoxud unga taalluqli bo'lmagan har qanday shaxslar, Boshqaruv a'zosi tomonidan tashakkurnoma yoxud esdalik sovg'a shaklida rag'batlantirish tarzida taqdirlanadi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bundan mustasno.

Esdalik sovg'a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan oshmasligi lozim.

13. Quyidagi holatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxs:

ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berganlik uchun **bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari**;

har hil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib og'irroq tasnifi bo'yicha bir marta;

bir hil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun bir marta;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik yoxud jinoyat haqida yoxud qidiruvdagi shaxs to'g'risida ikki yoxud undan ortiq shaxsning bergan xabari uchun mazkur Nizomning 9 va 11-bandlarida ko'rsatilgan pul mukofoti miqdorining teng ulushlarida rag'batlantiriladi.

14. Shaxs korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq davlat mukofotlariga ham tavsiya etilishi mumkin.

15. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoxud qarori qonuniy kuchga kirganda;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining 84-moddasi birinchi qismining 1-3-bandlari, uchinchi qismi hamda beshinchi qismining 1-bandi asosida ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanganda yoxud sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganda;

qidiruvdagi shaxsga nisbatan qidiruvning bekor qilinganligi to'g'risida prokurorning, surishtiruvchining, tergovchining qarori yoxud sudning ajrimi qabul qilinganda.

16. Kombinatdagi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Kombinat hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Kombinat va/yoxud uning xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

17. Kombinat va/yoxud uning xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasi Boshqaruv raisi yoxud ijro apparatida tuziladigan "Odob-ahloq komissiyasi" tomonidan ko'rib chiqiladi.

Bunda, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining rag'batlantirish to'g'risidagi taqdimnomasi "Olmaliq KMK" AJning Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat tarkibdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi"ga, Boshqaruv raisiga hamda Kombinat ijro apparatida tuziladigan "Odob-ahloq komissiya"lariga taqdim etiladi.

18. "Odob-ahloq komissiya"sining shaxsiy tarkibi, faoliyat yuritish tartibi, raisi va a'zolarining huquq va vakolatlari, vazifa va funksiyalari hamda majburiyatlari Boshqaruv raisi yoxud Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

19. Taqdimnomaga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ro'yxatdan o'tgan ariza nusxasi yoxud og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoxud ayblov hukmi nusxasi;

qidiruvni bekor qilish haqida, shuningdek, ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish to'g'risida chiqarilgan ajrim yoxud qaror nusxasi;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarning shaxsiy hisobvarag'i (plastik kartasiga) bo'lgan bank rekvizitlari. Ushbu bandeda ko'rsatilmagan hujjatlarni talab qilish qat'iy ta'qiqlanadi.

20. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining rag'batlantirish bo'yicha taqdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida "Olmaliq KMK" AJning Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat tarkibdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi"ga, Boshqaruv raisiga hamda Kombinat ijro apparatida tuziladigan "Odob-ahloq komissiya"lariga taqdim etiladi.

21. Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat tarkibdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi" tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to'liqliligi, asoslantirilganligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi bo'yicha o'rganib chiqiladi.

22. Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinmaganlik holati aniqlangan taqdirda, hujjatlar to'plami taqdimnomani kiritgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organiga ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

23. Rag'batlantirish bo'yicha Boshqaruv raisi yoxud ijro apparatida tuziladigan "Odob-ahloq komissiya"si tomonidan chiqarilgan qarorlar Kombinatning moliya, buxgalteriya va g'aznachilik bo'linmalariga uch ish kuni mobaynida ijrosini ta'minlash va natijasi bo'yicha batafsil hisobotni (tasdiqlovchi hujjatlarini ilova qilgan holda) rag'batlantirish to'g'risidagi taqdimnomani kiritgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organiga kiritish uchun yuboriladi.

24. Kombinat ijro apparatida tuziladigan "Odob-ahloq komissiya"si bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoxud esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqaradi.

25. Kombinat ijro apparatida tuziladigan "Odob-ahloq komissiya"sining raisi o'z rahbarligidagi komissiya qarorlarining qonuniyligi, xolisligi hamda xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlarni oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

26. Kombinatning tegishli G'azna va moliya bo'limi, Markaziy buxgalteriya, Kombinat yoshlar ittifoqi, Xodimlar bilan ishlash xizmati, Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish bo'limi, "Olmaliq KMK" AJ Kasaba uyushmalari kengashi yoxud ijro apparatida tuziladigan "Odob-ahloq komissiya"sining rag'batlantirish to'g'risidagi qarori asosida besh ish kuni ichida shaxslarning shaxsiy hisobvarag'iga (plastik kartasiga) qarorda belgilangan mablag'larni to'liq hajmda o'tkazib berilishini ta'minlaydi, esdalik sovg'asi esa qonun hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng besh ish kuni ichida taqdirlanayotgan shaxsning yozma shakldagi roziligi bilan tantanali ravishda topshirish ta'minlanadi.

27. Kombinatning G'azna va moliya bo'limi, Markaziy buxgalteriya, Kombinat yoshlar ittifoqi, Xodimlar bilan ishlash xizmati, Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish bo'limi, "Olmaliq KMK" AJ Kasaba uyushmalari kengashi qaror ijrosini ta'minlanganligi to'g'risidagi ma'lumotni, tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda uch ish kuni mobaynida taqdimnomani kiritgan korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organga rasmiy shaklda axborot beradi.

28. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi Xodimlar bilan ishlash xizmati, Kombinat yoshlar ittifoqi bo'limi, Yuridik departament, "Olmaliq KMK" AJ Kasaba uyushmalari kengashi tomonidan

birgalikda ko‘rib chiqiladi hamda Boshqaruv raisiga rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shma taklif kiritiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashganlik uchun rag‘batlantirilgan shaxslarning hisobi Mehnatga haq to‘lash va rag‘batlantirish bo‘limi taqdim etgan batafsil ma‘lumotlar asosida Komplaens-nazorat xizmati tomonidan yuritiladi.

30. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar, ularning oila a‘zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ular haqidagi ma‘lumotlar faqatgina qonun hujjatlarida belgilangan talablar asosidagina oshkor etilishi mumkin.

31. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar, ularning oila a‘zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

32. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga, Kombinatning ichki normativ hujjatlariga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan taqdirda, shuningdek ilg‘or xalqaro amaliyot o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqiladi. Komplaens-nazorat xizmati (korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi) mazkur Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish uchun mas‘ul hisoblanadi.

33. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

34. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.